

МУАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хам хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Sayliyeva M. M. Jamiyat va shax rivojlantirishda milliy g'oya tamoyillari va mazmuni	160
Kenjayeva M. Sh. Milliy qadriyat tushunchasining mazmun va mohiyati	167
Xujaev M. I., Esanova K. I. Маҳмудхўжа Бехбудий жадид матуботи етакчиси	175
Axmadaliyeva M. Sh., Madraximov I. B. Milliy uyg'onish davri poetikasida yetakchi g'oya va obrazlar	182

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Imomberdiyev S. S. Matematika darslarida ekologik komponentdan foydalanishning ahamiyati	186
Қўнназаров А. Қ. Информатика фанидан мултимедиали электрон ўқув қўлланма яратиш ва фойдаланиш методикаси	192
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Abdullayeva D. A. Differensiallarning taqribiy hisoblashlarga tatbig'i	198
Tursinboyeva Z. U., Ismoilova Z. T., Ravshanova R. M. Tarmoqlararo balans munosabatlarining iqtisodiy masalalarga tadbirlari	202
Shomurodov N. A. Taqribiy hisoblashlarda differensial hisob va darajali qatordan foydalanish	207

БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЎРБИЯ

Eshchanova G. O., Durdiyeva M. O. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ijodiy-kreativ faolligini shakllantirish usullari	212
Ozodova B. Raqamli texnologiya-MTT da zamonaviy zaruriyat	217
Eshchanova G. O., Shamuratova S. Q. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv	223
Xo'jamberdiyeva Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zaruriyati	230
Eshchanova G. O., Egamberdiyeva M. K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali nutq, muloqot kompetensiyalarini shakllantirish usullari	236
Nuradilova A. D. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda noan'anaviy dars usulining samarali natijalari	241
Jabborova O. M. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va didaktikasining diagnostika masalalari	246
Mardonov Sh. Q. Boshlang'ich ta'lim metodikasi va samaradorligi diagnostikasi	254
Eshmanova N. N. Boshlang'ich sinflarda bayon va insho yozish klaster metodikasi mazmuni	262
Qarshiboyeva X. K., Muminov Z. Sh. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari	269
Jabborova O. M., Abdujalilova M. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasi	275
Tashpulatova D. M. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi	279
Жансаитова Ж. Б., Таджикибаев И. У. Бастауыш сынып оқушыларына арналган психологиялык-педагогикалык диагностика	287
Eshmanova N. N., Rahmonova M. Oilada bola tarbiyasida o'zaro munosabatlar tizimi pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari	293
Tojiboyeva G. R. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda "Rivoj" loyihasiga asoslangan innovatsion maktab imkoniyatlari	299



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY LAYOQATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jabborova O. M.
(PhD)

Abdujalilova M. M.
CHDPU magistri

Tayanch soʻzlar: taʼlim, maktabgacha, bolalar, ijodiylik, layoqat, rivojlantirish, metod.

Ключевые слова: образование, дошкольные, дети, креативность, способность, развитие, метод.

Key words: education, preschool, children, creativity, ability, development, method.

Mamlakatimiz taʼlim tizimida maktabgacha taʼlim bosqichi muhim oʻrin tutadi va u umumiy oʻrta taʼlimning dastlabki tizimi sifatida belgilangan[1]. Shu sababli mazkur taʼlim bosqichida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasi amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda toʻrt mingdan ziyod maktabgacha taʼlim muassasasi mavjud va eng chekka hududlardagi qishloqlarda ham xususiy-davlat sherikchilik shaklida zamonaviy bogʻchalar tashkil etilmoqda. Bunda bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish ham muhim oʻrin tutadi. Mazkur oʻrinda maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasi tahliliga eʼtiboringizni tortamiz.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini aniqlash. Ijodiy layoqat – bu shaxsning ongi, bilimi, koʻnikmasi va iqtidorining muayyan sohada namoyon boʻlishidir [2]. Ijodiy layoqatni rivojlantirishda pedagogik, psixologik va sotsiologik metodlar muhim oʻrin tutadi. Aslida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqati tugʻma boʻlib, u koʻnikma sifatida turli vositalar yordamida rivojlantiriladi. Shu jihatdan bolalarning ijodiy layoqatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shuni taʼkidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy layoqat umumiy xususiyatga ega boʻladi. Misol uchun, bolalar rasm chizish, qoʻshiq kuylash, raqsga tushish kabi koʻnikmalarni emotsional tarzda namoyon qiladi. Biroq bolada mana shunday ijodiy layoqatning muayyan turi nisbatan rivojlangan boʻladi. Shu sababli bolaning ijodiy layoqatini aniqlashda suhbat, amaliy topshiriqlar bajarish, bolaning fikrlashi va mustaqil narsalar yaratishi kabi vositalarga eʼtibor berish maqsadga muvofiq boʻladi. Bunday ish maktabgacha taʼlim muassasasida pedagogik xodimlar va murabbiylar



tomonidan amalga oshirilishi metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Chunki pedagog xodimlar va murabbiylar pedagogik-psixologik vositalarga asosan ijodiy layoqatni aniqlashga yondashadi. Fransuz olimasi Mariya Motossori har bir bolaning ijodiy layoqatini aniqlashda puxta va ilmiy metodlarga asoslanishni tavsiya etadi [3]. Shu jihatdan bolalarning ijodiy layoqatini aniqlash bo'yicha maxsus So'rovnoma asoslanish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, bu borada ingliz pedagogi Tomas Charlining metodikasiga asoslanish mumkin [4]. Mazkur pedagog olimning tavsiyasiga ko'ra, maxsus tuzilgan So'rovnoma berilgan javoblarning mantig'iga diqqat qilish kerak va shu asosda bolaning ijodiy layoqatini to'g'ri aniqlab, u bilan individual ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqati aniqlangach, uni rivojlantirish tadbirlari belgilanadi. Bunday tadbirlarni belgilashda maktabgacha ta'lim muassasa sharoiti, muhiti va pedagog xodimlar hamda murabbiylarning imkoniyatlari hisobga olinadi. Shu jihatdan bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirishda ular bilan individual shug'ullanish, bolalarni ko'proq ijodiy ishlarga jalb qilish, bolalar tomonidan yaratilgan ishlanmalarni ommalashtirish va ularni rag'batlantirib borish, ijodiy layoqati talab darajasida rivojlangan bolalarning ota-onalarini namuna sifatida ko'rsatish kabi tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar bolalarning ijodiy layoqatini amaliy shakllantirish imkoniyatlarini beradi.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda yoshlarning turli tanlovlari, ko'riklari, festivallari, anjumanlari an'anaviy tarzda o'tkazilmoqda. Misol uchun, "Mening Vatanim" qo'shiqlar va tasviriy san'at tanlovi yoki "Mening ixtirom" axborot texnologiyasi ko'riklari yoshlarning ishlanmalari va ixtirolarini ommalashtiruvchi muhim tadbirlar sifatida e'tirof etilgan. Shu jihatdan layoqatli maktabgacha yoshdagi bolalarni bunday tadbirlarda ishtirok etishini ta'minlash ularning ijodiy ko'nikmalarini kutilgan darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda ijodiy layoqatni rivojlantirishda maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining faolligiga ehtiyoj seziladi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish yo'nalishlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasida bir necha yo'nalishlar bo'yicha yangi tadqiqotlar yaratish zaruriyat bo'lib turibdi. Bunday yo'nalishlarning asosiylari sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:

a) maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogik va psixologik xususiyatlarida ijodiy layoqatning tutgan o'rni;

b) maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish bo'yicha milliy va xorijiy ta'lim tajribalari;



v) maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish amaliyot;
g) maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish omillari, tamoyillari va modellari;

d) maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar.

Mazkur yo'nalishlarda yangi ilmiy-tadqiqotishlarini amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Buning natijasida qo'yilgan muammo bo'yicha zamonaviy metodikani ishlab chiqish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

E'tibor berilsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasida layoqatni aniqlash, rivojlantirish tadbirlarini belgilash va mazkur masalalar bo'yicha yangi tadqiqotlarni amalga oshirish muhim o'rin tutadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning o'ziga xos tajribalari mavjud. Misol uchun, rossiyalik pedagog olimlar o'z tadqiqotlarida bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish uchun ko'proq amaliy tadbirlarga asoslanishni tavsiya etishadi [5]. Haqiqatan ham turli amaliy tadbirlar bolalarning ijodiy layoqatini kutilgan darajada rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini o'rganish, ularni to'g'ri aniqlash va maktabgacha ta'lim muassasalari mashg'ulotlarini bolalar layoqatlarini rivojlantirishga yo'naltirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalari keng imkoniyatlarga ega ekanligini va ular zamonaviy talablar asosida jihozlanganligini eslatib o'tish joiz.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga ixtiyoriy intilishi ko'nikmasi shakllandi. Bunga qadar bola go'yoki majburiy tarzda bog'chaga borar edi. Demak, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayoni zamonaviylashdi va bola shaxsiga yo'naltirilgan. Shu jihatdan bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish bilan ularni umumiy o'rta ta'limga oqilona tayyorlashga erishiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirishda eng maqbul va qulay metodlarga tayanish tavsiya etiladi. Buning uchun pedagog xodimlar va murabbiylarning individual metodlari imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot amalga oshirgan mutaxassislarning ishtirokidan ham foydalanish amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli keyingi paytlarda bu boradagi tadqiqotlarni amaliyot bilan bog'lash masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasida o'ziga xos modellarga tayanish ham kutilgan samarani beradi.



Ana shunday modellardan biri bolalar bilan individual tarzda yangi ishlanmalar yaratishdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, agar bola to'g'ri yo'naltirilsa, u yangi ishlanmani erkin, ijodiy yondashuv va mustaqil ravishda yaratadi. Misol uchun, muayyan rasmlarni chizish, yangi konstruksiyali ishlanmalar yaratish, loy yoki plastilin bilan ishlashda bola qiziqish bilan munosabatda bo'ladi. Asosiy e'tibor bolaning mustaqil harakat qilishiga qaratilishi kerak. Bu borada maktabgacha ta'lim muassasalarida tajribali pedagog xodimlar va murabbiylar faoliyat yuritayotganligini ham eslatib o'tish joiz.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini tayyorlashda ularni ijodkorlik asoslari ko'nikmalari bilan ham qurollantirish muhim metodik yondashuvlardan biridir. Agar bo'lajak pedagog xodim ijodiylik ko'nikmasiga ega bo'lsa, kelgusida u bolalarni aynan shunday ruhda tarbiyalash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda yosh pedagog olimlar tomonidan bevosita maktabgacha ta'lim muassasalari bilan bog'liq holda tadqiqotlar yaratish an'anasi tarkib topdi. Aynan mana shunday mutaxassislarining metodik tavsiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki pedagog xodimlar va murabbiylar ko'p hollarda ijodiy layoqatni rivojlantirish jarayoniga amaliy munosabatda bo'ladi, maxsus mutaxassislar esa mazkur masalaning ilmiy omillariga ham e'tibor berishadi.

Bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish bilan ularni aqliy, jismoniy, ruhiy va estetik jihatdan tarbiyalash ishlari yanada kuchayadi. Shu sababli mazkur masalaga maxsus yondashish taqozo etiladi. Shunday qilib maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish zaruriyat bo'lib turibdi va bu borada yangi ishlanmalarni yaratish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. // www.google.uz
2. Pedagogika fanidan izohli lug'at. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, 2010
3. Istoriya zarubejnoj doskolnoye pedagogiki. – Moskva, 1998
4. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. -Sankt-Peterburg, 2001
5. Gessen A. Pedagogika. – Moskva, 2016.

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish to'g'risida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье размышлено о развитии методики креативных способности детей дошкольного возраста.

SUMMARY

The article discusses the development of creative abilities of preschool children.